

"O'zkimyosanoat" AJ da Yangi O'zbekiston universiteti vakillari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi

// 10 October 2023 yil

<https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-da-yangi-o-zbekiston-universiteti-vakillari-bilan-uchrashuv-bo-lib-o-tdi>



Yangi O'zbekiston universitetining faxriy rektori, nemis kimyogari, professor Dr. Wolfgang A. Hermann hamda universitet prorektori Baxtiyor Yo'ldoshev "O'zkimyosanoat" AJga tashrif buyurishdi.



Uchrashuvda kimyo sohasida ilm-fan, ta'lim, zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan yetuk kadrlar tayyorlash, shuningdek, ularni munosib ish o'rinlari bilan ta'minlash masalalari muhokama qilindi.



Kadrlar tayyorlashda Yevropa universitetlari bilan hamkorlikni o'rnatishga amaliy yordam ko'rsatish va ilmfanni ishlab chiqarish jarayonlari bilan integratsiyalashuvini hamkorlikda amalga oshirishga kelishib olindi.

